MA’NO KO‘CHISHINING O‘ZBEK VA TURK TILLARIDAGI O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Qoraboyeva Rayhon Abdurahmon qizi
Termiz davlat universitetining o‘zbek filologiyasi va jurnalistika fakulteti 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.24219754

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi ma’no ko‘chish uslullari, asosiy turlari, tasnifi haqida ma’lumot berilib, turk tilidagi o‘xshash hamda farqli jihatlari ko‘rib chiqildi.*

Ma’no ko‘chishining metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi turlari nazariy va amaliy misollar yordamida ko‘rsatib berildi. Bu maqoladan lug‘atshunoslik va turkiy tillarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, o‘zbek tili, turk tili, qiyosiy tahlil.*

Özet. *Bu makalede Özbekçedeki anlam kayması yöntemleri, temel türleri ve sınıflandırılması hakkında bilgi verilmiş, Türkçedeki benzer ve farklı yönleri ele alınmıştır.*

Anlam kaymasının metafor, metonimi, sinekdok ve işlevdaşlık gibi türleri teorik ve pratik örnekler yardımıyla gösterilmiştir. Bu makaleden sözlükbilim ve Türk dillerinin öğretiminde yararlanılabilir.

Anahtar kelimeler: *metafor, metonimi, sinekdok, işlevdaşlık, Özbekçe, Türkçe, karşılaştırmalı analiz.*

KIRISH

So‘zning kuchi faqat o‘z ma’nosida emas, balki yangi ma’nolarni o‘ziga singdira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli ham nutqimiz ta’sirchan va obrazli bo‘lib chiqadi.

Adabiyotlarimizga nazar tashlasak, umr daryosi, dard dengizi, qalb ko‘zgusi, ko‘ngil mulki, oy yuzli, g‘uncha labli, tishlari inju, qoshlari kamon kabi iboralarni juda ko‘p uchratamiz.

Bu so‘zlarning har birida o‘z ma’nosidan tashqari, yanada teran mazmun yotadi. So’zning o’z ma’nosidan tashqari ma’noda qo’llanilishi tilshunoslikda ma’no ko‘chishi deb ataladi.

O‘zbek hamda turk tili bitta oilaga, ya’ni turkiy tillarga kirganligi sababli ma’no ko‘chishi ko‘p jihatdan o‘xshash, ammo har bir xalqning o‘z tarixi va tafakkuri so‘zlarning ko‘chma ma’nolarida o‘z izini topgan. Ushbu maqoladan maqsad ma’no ko‘chishi turlarini o‘zbek tili misolida turk tili bilan qiyoslash.

So‘zlarda ikki xil ma’no bor. Birinchisi o‘z ma’no, ikkinchisi esa ko‘chma ma’no deb yuritiladi. So‘zning nutq jarayoniga bog‘liq bo‘lmagan atash ma’nosi o‘z ma’no deyiladi.

Ko‘chma ma’no esa so‘zning asosiy ma’nolariga asoslanib matnda yoki nutq jarayonida boshqa so‘zlarga qo‘shilgan holda paydo bo‘ladigan yondosh ma’nodir. Endi o‘z ma’noli so‘z va ko‘chma ma’nodagi so‘zni qanday farqlaymiz? Buni bilish uchun so‘zni nutq jarayonidan ajratish yetarli. So‘zlar nutq tarkibida boshqa so‘zlar bilan birga qo‘llaniladi. Uni alohida olib qaraganda nutq jarayonidan tashqarida bo‘ladi va qanday ma’no ifodalayotganligi oydinlashadi.

Masalan: o‘zbekcha *uying tor* – turkcha *evin dar*. Real hayotda uyning hajmi rostdan ham kichik bo‘lishi mumkin. Bu so‘z ikkala tilda ham o‘z ma’nosida qo‘llangan. O‘zbekcha *ko‘ngling keng* – turkcha *gönlün geniş*. Inson ko‘ngli mavhum tushuncha bo‘lib, uning hajman keng yoxud tor bo‘lishi mantiqan imkonsiz. Binobarin, ushbu so‘zlar ko‘chma ma’noda insonning shaxsiy fe’l-atvori, saxovatini ifodalashga xizmat qilgan.

Ma’no ko‘chishining nima asosda ro‘yobga kelishiga ko‘ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik singari turlari mavjud.

Metafora (grekcha metaphore – ko‘chirish) – biror predmet belgisining, harakatning o‘xshash tomonini boshqasiga ko‘chirish. O‘xshashlik shakl, rang, xususiyat yoki ta’sir jihatidan bo‘lishi mumkin.[1] Masalan: *oltin qo‘llar – altın eller* birikmasida oltinning qadri ustaning mahoratiga ko‘chgan. Bundan tashqari, quyidagi misolda ham metafora ko‘rinadi:

Rahmi kelib bulutning
Yig‘lab to‘kar yoshini.
Qushlar qochar, majnuntol
Ko‘taradi boshini.
Bulutning orasidan
Quyosh kulib qaraydi,
Majnuntolning yuvilgan
Sochlarini taraydi.[2] *(E. Vohidov)*

Turk tili bilan farqli jihati shundaki, ba’zan bir xil ma’no ikki tilda turli metafora bilan beriladi. O‘zbek tilida *yuzi yorug‘* deyilsa, turk tilida *alnı ak* deyiladi: o‘zbek tilida yuz, turk tilida peshona obraz bo‘lgan.

Metonimiya (grekcha metonymia – qayta nomlash) – narsa va hodisalar o‘rtasidagi makon hamda zamondagi o‘zaro aloqadorlik asosida birining nomi ikkinchisiga ko‘chishidir.

Jumladan, *Samovarda osh yedik* deganda choy ichiladigan joy bilan choy qaynatadigan buyum o‘rtasidagi aloqadorlik asosida birining nomi boshqasiga ko‘chgan. Metonimiyada har doim ikki predmetdan biri aytilib, ikkinchisi tushuniladi, shuning uchun ikkinchi predmetning nomi tushirilganda ham birinchi predmetning nomi orqali anglashiladi.

Oltinsoyda yashayman – Oltinsoy tumanida yashayman.
Salima kirib bemorning oyog‘iga o‘tirdi – Salima kirib bemorning oyoq tomoniga o‘tirdi.

Turkchada: *bir piyola choy ichdim – bir bardak çay içtim*. Farqli jihati shundaki, turk tilida *yemek* so‘zi ham ovqat ma’nosida, ham yemoq ma’nosida qo‘llaniladi. O‘zbek tilida esa yemoq fe’l, ovqat ma’nosi alohida *ovqat* so‘zi bilan beriladi. Masalan: *kechki ovqat – akşam yemeği*.

Sinekdoxa (grekcha synecdoche – birgalikda anglash) – shaxs yoki predmetning nomi o‘rnida a’zo, bo‘lak orqali o‘sha tushunchani berish, ya’ni bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakni ifodalashni bildiradi.

– Farzandi bormi?
– Tirnoqqa zor.

Yuqoridagi gapda tinglovchi so‘zlovchining savoliga yo‘q deb javob bersa bo‘lar edi, ammo tirnoqqa zor iborasini ishlatishni ma’qul ko‘rdi. Bu bilan tinglovchi suhbat mavzusiga aylangan shaxsning farzandi yo‘qligini bildirish bilan cheklanib qolmasdan, farzand ko‘rishga tashna ekanligini bildirib o‘tgan. Farzand so‘ziga tirnoq so‘zi ishlatilyapti, hayron bo‘lgandirsiz?

Ha, tirnoq bolaning kichik bir tana a’zosi. Shu a’zoga ham zorligi bo‘rttirib ko‘rsatilgan.[3]

1. *Bitta tuyoq bilan beshta bolani boqdim.* (tuyoq orqali butun bir sigir nazarda tutilgan)

2. *Eshitgan quloq nima deydi?* (insonning eshitish qobiliyatiga ega a’zosi orqali butun bir inson nazarda tutilgan)

[1] Erkaboyeva N. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. –Toshkent, 2019. –B. 87
[2] Erkaboyeva N. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. –Toshkent, 2019. –B. 88.
[3] Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. –Toshkent, 2019. – B. 92.

Turk tili bilan farqli jihati: sinekdoxaning mohiyati ikki tilda ham deyarli bir xil: ikkalasida ham butun o‘rniga bo‘lak, bo‘lak o‘rniga butun tushuniladi. *Yelkan – yelken, tom ostida – çatı altında* kabi so‘zlar so‘zma-so‘z mos.

Bu turda farq boshqa turdagilarga qaraganda kam bo‘lganligi sababli, ba’zi manbalarda sinekdoxa metonimiya tarkibida o‘rganiladi deyilgan. «Bosh» so‘zi turk tilida «baş» qo‘shma so‘zlarda «bosh, asosiy» ma’nolarida juda faol: *başkent, başkan, başlık*. O‘zbek tilida bu ma’no ko‘pincha boshqa so‘zlar orqali beriladi: poytaxt, rais, sarlavha kabi. Shuningdek, turk tilida «can» (jon) so‘zi «odam» ma’nosida ham ishlatiladi (*iki can*), o‘zbek tilida esa «kishi, nafar» so‘zlari ishlatiladi.

Vazifadoshlik. *Ko‘chalarni chiroqlar yop-yorug‘ qilib turipti. Chiroq piligini pasaytirdi*.

Bu ikki gapda ishlatilgan *chiroq* so‘ziga e’tibor bersak, u bir xil vazifa bajaruvchi ikkita bir-biriga o‘xshamaydigan narsalarni ifodalayotganligiga guvoh bo‘lamiz. Birinchisida «elektr toki orqali yorituvchi noksimon yoki tayoqsimon asbob» (lampochka)ni, ikkinchisida esa «kerosinga plik solish vositasi bilan yorituvchi, asbob va shisha qismlaridan tashkil topgan asbob»ni bildiradi. Bu asbob shakliga ko‘ra bir-biriga o‘xshamaydi, makon va zamonda ularning aloqadorligi ham yo‘q, lekin har ikkisi yoritish vazifasini bildiradi.[4] Vazifadoshlik asosida vujudga kelgan so‘zlarni bilish, ularning ilgari qanday shakldagi narsalarni ifodalaganini anglash tilimiz imkoniyatlarining naqadar boyligini his qilishimizga yordam beradi. Bu kabi birikmalar turk tilida ham xuddi shunday hosil bo‘lgan: masalan, *masanın ayağı, iğnenin gözü, dağın eteği*.

Farq esa shundaki, bir xil predmet ikki tilda turli a’zo nomi bilan atalishi mumkin.

O‘zbek tilida eshikning ushlanadigan qismi «eshik dastagi» deyilsa, turkchada «kapı kolu» deyiladi.

Bobom eski stolning singan oyog‘ini usta chaqirib tuzattirdi.

Dedem eski masanın ayağını usta çağırıp onarttırdı.

Bu yerda oyoq so‘zining ma’nosi vazifadoshlik asosida ko‘chgan, chunki stolning oyog‘i ham insonning oyog‘i ham tik turish vazifasini bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o’zbek tili va turk tilidagi ma’no ko’chishi turlarini o’rganish, o’xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, so’zning ko’chma ma’nolarini yaxshiroq anglashga imkon yaratadi. Bundan tashqari so’zlarning qo’llanilishidagi o’ziga xos xususiyatlarni aniqlashda yordam beradi .Mening fikrimcha, ikki tildagi ko’chma ma’noli so’zlarni jamlab qiyosiy lug’at tuzish kerak. Bu kelajak avlod uchun juda foydali bo’ladi. Ayniqsa til o’rganishda bunday lug’at so’zlarning tezroq mazmunini anglashda yordamchi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Shu sababdan kelajakda o’zbek va turk tilidagi ma’no ko’chish hodisasini yanada chuqurroq o’rganib misollar yordamida qiyoslashni taklifini qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbek tili dan ma’ruzalar to’plami Toshkent 2019.]
2. [1] Erkaboyeva N. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. –Toshkent, 2019. –B. 87
3. S[1] Erkaboyeva N. O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. –Toshkent, 2019. –B. 88.
4. [1] Erkaboyeva N. O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami. –Toshkent, 2019. – B. 92.
5. [1] Erkaboyeva N.O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. – Toshkent, 2019. – B. 93.

[4] Erkaboyeva N.O’zbek tilidan ma’ruzalar to’plami. – Toshkent, 2019. – B. 93.